

UDK 331.45

FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDAGI HUJJATLARNING ELEKTRON RAQAMLI BAZASIDAN FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDAGI TADQIQOTLAR

Qosimov Jo'rabek Sodiqovich

*O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimi
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: mazkur maqolada elektron raqamli bazasini FVDTga integratsiya qilish yo'llari va iqtisodiyot ob'yektlarida Fuqaro muhofazasi hujjatlarning elektron raqamli bazasi foydalanish orqali, FVDT tarkibiga kiruvchi vazirlik va idorlarning Fuqaro muhofazasi sohasida joriy etishning muhim jihatlari yuzasidan so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: FVDT, favqulodda vaziyat, favqulodda vaziyatlarni oldini olish, fuqaro muhofazasi, iqtisodiyot ob'yekti, fuqaro muhofazasi hujjatlar, elektron raqamli baza.

Аннотация: в данной статье рассматривается порядок использования электронной базы данных и важные аспекты широкого внедрения информационных технологий посредством использования электронной цифровой базы документов гражданской защиты на объектах экономики.

Ключевые слова: информационные технологии, чрезвычайная ситуация, предупреждение чрезвычайных ситуаций, гражданская защита, экономический объект, документы гражданской защиты, электронная цифровая база, безопасный город.

Annotation: This article refers the usage of an electronic advanced database within the field of gracious assurance at economic facilities.

Key words: Emergency situation, prevention of emergency, civil protection, economic facilities, civil protection documents, electronic digital database.

Iqtisodiyot obyektlarining barqaror ishlashi, turli favqulodda vaziyatlar sharoitida obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlarni muvofiqlashtirish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, fuqaro muhofazasi sohasidagi hujjatlarning elektron raqamli bazasini yaratish, fuqaro muhofazasi sohasiga IT sohasining zamonaviy texnologiyalaridan keng foydalanish qoidalariga o'rgatish ko'rsatkichlarini yaxshilash masalasini asoslash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan. Ayni shu maqsadda, har bir yangi yaratilgan intellektual mahsulot o'zining amaliyotga joriy etilishi, insonlarning hayotini yengillashtirishi, ularning hayoti va sog'ligini saqlashi, shuningdek, ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda

vaziyatlarning oldin olishi bilan ahamiyatlidir. Iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi sohasidagi hujjatlarning dasturiy ta'minoti fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul shaxslarning faoliyatini takomillashtirish borasida amaliy tajribalar o'tkazildi. Unga asosan, obyektlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha buyruqlar, rejalar, nizomlar, obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarini o'qitish va amaliy mashg'ulotlar, o'quv mashqlarini o'tkazish bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish ko'rsatkichlarini yaxshilash masalasini asoslash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.

Obyektlarda fuqaro muhofazasi sohasida 45 tagacha hujjat ishlab chiqiladi va hujjatlar aksariyati (rejalar, nizomlar) FVB bilan kelishishni talab etadi. Bunda xodimning vaqti, bilim saviyasi, obyekt to'g'risida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lishi kabi muhim jihatlari inobatga olinadi. Fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul shaxslarning bu boradagi o'z malaka va ko'nikmalarini oshirib borishlari zarurligi o'rganildi.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan dasturiy ta'minot orqali respublikamizda faoliyat yuritayotgan bir nechta korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatida amaliy sinov ishlari olib borildi. Olib borilgan izlanishlar va tadqiqotlarga asosan, "To'raqo'rg'on neft bazasi" MCHJ, "Namangan xalqaro aeroporti" MCHJ da "E-elektron fuqaro muhofazasi hujjatlari" dasturdan foydalangan holda fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlar ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan dasturdan foydalanib fuqaro muhofazasi sohasida hujjatlarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish o'zining ijobiy samarasini berdi.

Iqtisodiyot obyektlarining fuqaro muhofazasi sohasidagi hujjatlarini ishlab chiqishda kundalik faoliyatda eski usullardan va yangi yaratilgan dasturiy ta'minotdan foydalangan holda ishlab chiqish yuzasidan tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot uchun tanlangan obyektlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqishda har bir yo'nalishdagi hujjatlar alohida ajratib olindi, har bir yo'nalish bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish me'yorlari jadval ko'rinishida berildi.

1. Asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqishda sarflanadigan vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalarining matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y_1 = y_{11} + y_{12} + y_{13} + y_{14} + y_{15} + y_{16} + y_{17} + y_{18} \quad (1)$$

$$y_{1i} = x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + x_5 + x_6 + x_7, i=1 \dots 8. \quad (2)$$

1. x_1 – hujjatni yuklab olish (daqiqqa)

$$1 \leq x_1 \leq 2$$

2. x_2 – hujjatni muassasaga moslashtirish (daqiqqa)

$$14 \leq x_2 \leq 15$$

3. x_3 – shaxsiy tarkib hisobi, o'tgan yilgi tahlil (daqiq)

$$14 \leq x_3 \leq 15$$

4. x_4 – tadbirlar soni (daqiq)

$$18 \leq x_4 \leq 20$$

5. x_5 – buyruqni kelishish (daqiq)

$$4 \leq x_5 \leq 5$$

6. x_6 – buyruqni tasdiqlatish va ro'yxatga olish (daqiq)

$$1 \leq x_6 \leq 2$$

7. x_7 – buyruqni ijrochilar uchun yuborish (daqiq)

$$0,5 \leq x_7 \leq 1$$

“To'raqo'rg'on neft bazasi” MCHJ uchun innovatsion usulda hisoblashning tadqiqot natijalari quyidagicha bo'ladi:

$$x_1=2, x_2=15, x_3=15, x_4=20, x_5=5, x_6=2, x_7=1$$

$$y_{11} = 2 + 15 + 15 + 20 + 5 + 2 + 1 = 60 \text{ daqiqa,}$$

$$x_1=2, x_2=10, x_3=0, x_4=8, x_5=7, x_6=2, x_7=1$$

$$y_{12} = 2 + 10 + 0 + 8 + 7 + 2 + 1 = 30 \text{ daqiqa va h.k.}$$

Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

**Fuqaro muhofazasi sohasida ishlab chiqiladigan buyruqlar
Tayyorlashdagi vaqt me'yorlari**

T/r	Bajariladigan tadbirlar	“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ		“Namangan xalqaro aeroporti” MCHJ	
		Kundalik faoliyat rejimi (daqiq)	Innovatsion usulda (daqiq)	Kundalik faoliyat rejimi (daqiq)	Innovatsion usulda (daqiq)
FM sohasida ishlab chiqiladigan buyruqlar					
1.	Asosiy tadbirlar rejasi buyruq	150	60	150	60
2.	FM komissiyalari bo‘yicha buyruq	90	30	180	50
3.	FM tuzilmalarini bo‘yicha buyruq	180	60	210	60
4.	FM tuzilmalarini o‘qish bo‘yicha buyruq	150	60	180	60

5.	Iqtisodiyot obyekti oylik tadbirlarni tashkil etish bo'yicha buyruq	150	60	160	70
6.	Buyruqni kelishish	150	60	210	80
7.	Tasdiqlatish va ro'yxatga olish	150	60	210	80
8.	Ijrochilar yuborish	150	60	210	80
Jami		1170	450	1510	540

2. Fuqaro muhofazasi sohasida ishlab chiqiladigan rejalar vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalarining matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y_2 = y_{21} + y_{22} + y_{23} + y_{24} + y_{25} + y_{26} + y_{27} \quad (3)$$

$$Y_{2i} = x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + x_5 + x_6 + x_7, i=1 \dots 7. \quad (4)$$

1. x_1 – hujjatni yuklab olish (daqiqqa)

$$1 \leq x_1 \leq 2$$

2. x_2 – hujjatni muassasaga moslashtirish (daqiqqa)

$$14 \leq x_2 \leq 15$$

3. x_3 – FVDT xizmatlaridan va tegishli tashkilotlardan ma'lumotlarni olish va tahlil qilish (daqiqqa)

$$55 \leq x_t \leq 60$$

4. x_4 – tadbirlar soni (daqiqqa)

$$28 \leq x_4 \leq 30$$

5. x_5 – rejani kelishish(daqiqqa)

$$6 \leq x_k \leq 8$$

6. x_6 – rejani tasdiqlatish va ro'yxatga olish(daqiqqa)

$$0,5 \leq x_6 \leq 1$$

7. x_7 – rejani ijrochilar uchun yuborish(daqiqqa)

$$10 \leq x_7 \leq 13$$

“To'ra qo'rg'on neft bazasi” MCHJ uchun innovatsion usulda hisoblashning tadqiqot natijalari quyidagicha bo'ladi:

$$x_1=2, x_2=15, x_3=3600, x_4=30, x_5=540, x_6=60, x_7=13$$

$$y_{21} = 2 + 15 + 3600 + 30 + 540 + 60 + 13 = 4320 \text{ daqiqqa, } y_{21} = 3 \text{ kun}$$

Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan:

**Fuqaro muhofazasi sohasida ishlab chiqiladigan
rejalarni tayyorlashdagi vaqt me'yorlari**

T/r	Bajariladigan tadbirlar	“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ		“Namangan xalqaro aeroporti” MCHJ	
		Kundalik faoliyat rejimi (daqiq)	Innovatsion usulda (daqiq)	Kundalik faoliyat rejimi (daqiq)	Innovatsion usulda (daqiq)
FM sohasida ishlab chiqiladigan rejalari					
1.	Fuqaro muhofazasi rejasi	150	60	180	60
2.	Obyektda FVlar oldini olish va ularda harakat qilish reja	43200	4320	47200	4420
3.	Hamkorlikda harakat qilish rejasi	14400	4320	1540	4420
4.	FM tuzilmalarini shay holatga keltirish rejasi	120	20	150	30
5.	FM tuzilmalarni asbob-anjomlar bilan ta'minlab va yangilab borish rejasi	120	40	150	60
6.	FM mutaxassisining yillik ish rejasi	140	40	150	40
7.	Rejalarni kelishish	7200	4320	8200	4420
8.	Rejalarni tasdiqlatish va ro'yxatga olish	110	40	150	60
Jami		65440	13160	71580	13510

Reja ijro etuvchi organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va doimiy tayyorgarligi oshirilgan xizmatlar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun foydalaniladigan avariya-qutqaruv xizmatlari va tuzilmalariga ega bo'lgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, viloyat FVDT boshqaruv organlari, kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlar vujudga kelishiga, aholining nobud bo'lishi ehtimoli va moddiy zararlarni kamaytirishga tezkorlik bilan bartaraf etish uchun mo'ljallangan. Reja tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish chog'ida harakat qilish tartibini va asosiy tadbirlarni, ularni bajarish muddatlarini kelishish, buning uchun zarur bo'ladigan moliyaviy, moddiy va boshqa resurslarni hamda mas'ul ijrochilarni belgilab beradi. Obyektlarda ishlab chiqiladigan rejalarning mukammal ishlab chiqilishi va tegishli organlar bilan kelishi va kuch va vositalarni taqsimoti o'g'ri rejalashtirishga xizmat qiladi.

3. Fuqaro muhofazasi sohasida faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalarni o'qitish bo'yicha hujjatlarning vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalarining matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y_3 = y_{31} + y_{32} + y_{33} + y_{34} + y_{35} + y_{36} \quad (5)$$

$$y_{3i} = x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + x_5, i=1 \dots 6. \quad (6)$$

1. x_1 – hujjatni yuklab olish (daqiq)

$$1 \leq x_1 \leq 3$$

2. x_2 – hujjatni muassasaga moslashtirish(daqiqa)

$$35 \leq x_2 \leq 40$$

3. x_3 – guruhlar hisobi(daqiqa)

$$8 \leq x_3 \leq 10$$

4. x_4 – rejani tasdiqlatish va ro'yxatga olish(daqiqa)

$$2 \leq x_4 \leq 4$$

5. x_5 – rejani ijrochilar uchun yuborish(daqiqa)

$$1 \leq x_5 \leq 3$$

“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ uchun innovatsion usulda hisoblashning tadqiqot natijalari quyidagicha bo‘ladi:

$$x_1=3, x_2=40, x_3=10, x_4=4, x_5=3$$

$$y_{31} = 3 + 40 + 10 + 4 + 3 = 60 \text{ daqiqa}$$

Tadqiqot natijalari 3-jadvalda keltirilgan:

3-jadval

**FM sohasida faoliyat ko‘rsatadigan tuzilmalarini o‘qitish
bo‘yicha hujjatlarni ishlab chiqishdagi vaqt me‘yorlari**

T/r	Bajariladigan tadbirlar	“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ		“Namangan xalqaro aeroporti” MCHJ	
		Kundalik faoliyat rejimi daqiqa	Innovatsion usulda daqiqa	Kundalik faoliyat rejimi daqiqa	Innovatsion usulda daqiqa
FM sohasida faoliyat ko‘rsatadigan tuzilmalarini o‘qitish bo‘yicha hujjatlar					
1.	Yillik o‘quv dastur	150	60	180	70
2.	Mavzular ro‘yxati	150	60	180	70
3.	Reja konspektlar	150	60	180	70
4.	FM bo‘yicha testlar	150	60	180	70
5.	O‘quv jurnallar	150	60	180	70
6.	Hujjatlarni tasdiqlatish	150	60	180	70
Jami		900	360	1080	420

Iqtisodiyot obyektlarning fuqaro muhofazasi xizmatlari kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakatlanishga o‘rgatish hal qiluvchi omillardan sanaladi. Chunki favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishga tayyor inson – yarim qutqarilgan insondir. Obyektlarda o‘qitish o‘yicha hujjatlarga alohida ahamiyat beriladi. Barcha hujjatlar dasturiy ta‘minotni yuklab olish orqali foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.

4. Fuqaro muhofazasi sohasidagi Nizomlarning vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalarining matematik ifodasi quyidagicha bo‘ladi:

$$Y_4 = y_{41} + y_{42} + y_{43} + y_{44} + y_{45} + y_{46} + y_{47} + y_{48} \quad (7)$$

$$y_{4i} = x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + x_5 + x_6, \quad i=1 \dots 8. \quad (8)$$

1. x_1 – hujjatni yuklab olish, (daqiqqa)

$$3 \leq x_1 \leq 5$$

2. x_2 – hujjatni muassasaga moslashtirish, (daqiqqa)

$$280 \leq x_2 \leq 300$$

3. x_3 – shaxsiy tarkib hisobi, (daqiqqa)

$$100 \leq x_3 \leq 120$$

4. x_4 – Nizomni tegishlilik bo‘yicha kelishish (FVB), (daqiqqa)

$$3100 \leq x_4 \leq 3120$$

5. x_5 – Nizomni tasdiqlatish va ro‘yxatga olish, (daqiqqa)

$$20 \leq x_5 \leq 25$$

6. x_6 – Nizomni ijrochilar uchun yuborish, (daqiqqa)

$$25 \leq x_6 \leq 30$$

“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ uchun innovatsion usulda hisoblashning tadqiqot natijalari quyidagicha bo‘ladi:

$$x_1=5, x_2=300, x_3=120, x_4=3120, x_5=25, x_6=30$$

$$y_{41} = 5 + 300 + 120 + 3120 + 25 + 30 = 3600 \text{ daqiqa}, y_{41} = 3 \text{ kun}$$

Tadqiqot natijalari 4-jadvalda keltirilgan:

4-jadval

FM sohasidagi Nizomlar ishlab chiqishdagi vaqt me‘yorlari

T/r	Bajariladigan tadbirlar	“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ		“Namangan xalqaro aeroporti” MCHJ	
		Kundalik faoliyat rejimi (daqiqqa)	Innovatsion usulda (daqiqqa)	Kundalik faoliyat rejimi (daqiqqa)	Innovatsion usulda (daqiqqa)
FM sohasidagi Nizomlar					
1.	Obyekt FM tuzilmalarini tashkil etish bo‘yicha Nizom	14400	4320	15400	4420
2.	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat hududiy quvi	14400	4320	15400	4420

	tizimi to'g'risida Nizom				
3.	Obyektida favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanish tartibi to'g'risida Nizom	14400	4320	15400	4420
4.	Tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar monitoringi, axborot almashinuvi va prognozlash yagona tizimi to'g'risida Nizom	14400	4320	15400	4420
5.	FM tuzilmalari tuzilishining namunaviy hisobi	150	60	180	70
6.	FM tuzilmalarining namunaviy tashkiliy-shtat strukturasi	150	60	180	70
7.	obyekt FM tuzilmalarini hisobga olish hujjatlari	150	60	180	70
8.	FM tuzilmalarini moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash (tabellalashtirish) me'yori	150	60	180	70
9.	Obyekt FM tuzilmalarini majburiyatlari	240	30	280	40
10.	Nizomlarni kelishish	7200	4320	8200	4420
11.	Nizomlarni tasdiqlatish va ro'yxatga olish	110	40	150	60
Jami		65750	21910	70970	22480

5. Fuqaro muhofazasi sohasida maxsus taktik o'quv mashqlar o'tkazish bo'yicha hujjatlarning vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalarining matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y_5 = y_{51} + y_{52} + y_{53} + y_{54} + y_{55} + y_{56} + y_{57} \quad (9)$$

$$y_{5i} = x_1 + x_2 + x_3 + x_4 + x_5 + x_6 + x_7, \quad i=1 \dots 8. \quad (10)$$

1. x_1 – hujjatni yuklab olish (daqiqa)
 $1 \leq x_1 \leq 2$
2. x_2 – hujjatni muassasaga moslashtirish (daqiqa)
 $170 \leq x_2 \leq 180$
3. x_3 – shaxsiy tarkib hisobi (daqiqa)
 $25 \leq x_3 \leq 30$
4. x_4 – tadbirlar soni (daqiqa)
 $25 \leq x_4 \leq 30$
5. x_k – hujjatlar to'plamini kelishish (daqiqa)
 $18 \leq x_k \leq 20$
6. x_6 – hujjatlarni tasdiqlatish va ro'yxatga olish (daqiqa)

$$4 \leq x_6 \leq 5$$

7. x_7 – hujjatlarni ijrochilar uchun yuborish (daqiqqa)

$$2 \leq x_7 \leq 3$$

“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ uchun innovatsion usulda hisoblashning tadqiqot natijalari quyidagicha bo‘ladi:

$$x_1=2, x_2=180, x_3=30, x_4=30, x_5=20, x_6=5, x_7=3$$

$$y_{51} = 2+180+30+30+20+5+3=270 \text{ daqiqa}$$

Tadqiqot natijalari 5-jadvalda keltirilgan:

5-jadval

**FM sohasida MTO‘M o‘tkazish bo‘yicha hujjatlar ishlab
chiqishdagi bo‘yicha vaqt me‘yorlari**

T/r	Bajariladigan tadbirlar	“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ		“Namangan xalqaro aeroporti” MCHJ	
		Kundalik faoliyat rejimi (daqiqqa)	Innovatsion usulda (daqiqqa)	Kundalik faoliyat rejimi (daqiqqa)	Innovatsion usulda (daqiqqa)
FM sohasida MTO‘M o‘tkazish bo‘yicha hujjatlar					
1.	MTO‘Mga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha buyruq	150	30	150	30
2.	MTO‘M tayyorgarlik ko‘rish taqvim rejasi	150	30	150	30
3.	Obyektida o‘tkaziladigan MTO‘M rejasi	150	30	150	30
4.	MTO‘M o‘quv nuqtalarini joyini o‘rganish rejasi	150	30	150	30
5.	MTO‘M moddiy-texnika ta‘minoti rejasi	150	30	150	30
6.	MTO‘M uchun taktik topshiriqlar	150	30	150	30
7.	MTO‘M rahbarining shaxsiy ish rejasi	150	30	150	30
8.	MTO‘M bajariladigan tadbirlar imitatsiya rejasi	150	30	150	30
9.	MTO‘M rahbarlikni tashkil etish tarhi	150	30	150	30
10.	MTO‘M tayyorgarlik ko‘rish davri davomida bajarilgan foydali ish rejasi	150	30	150	30
11.	MTO‘M tayyorlash va o‘tkazishda amal qilinadigan xavfsizlik choralari	150	30	150	30
12.	MTO‘M yakunlari bo‘yicha buyruq	150	30	150	30
13.	Hujjatlarni kelishish	150	30	150	30
14.	Hujjatlarni tasdiqlatish va ro‘yxatga olish	150	30	150	30
Jami		2100	420	2100	420

Iqtisodiyot obyektlari fuqaro muhofazasi sohasida ishlab chiqiladigan hujjatlarni kundalik faoliyatda innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalarining matematik ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$Y=Y_1+Y_2+Y_3+Y_4+Y_5 \quad (11)$$

bu yerda, Y_1 - Asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqishda sarflanadigan vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalari; Y_2 - Fuqaro muhofazasi sohasida ishlab chiqiladigan rejalar vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalari; Y_3 - Fuqaro muhofazasi sohasida faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalarini o'qitish bo'yicha hujjatlarni vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalari; Y_4 - Fuqaro muhofazasi sohasidagi Nizomlarni vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalari;

Y_5 - Fuqaro muhofazasi sohasida maxsus taktik o'quv mashqlar o'tkazish bo'yicha hujjatlar vaqt taqsimotini innovatsion usulda hisoblash tadqiqot natijalari.

“To'rao'rg'on neft bazasi” MCHJ uchun innovatsion usulda hisoblashning tadqiqot natijalari quyidagicha bo'ladi:

$$Y_1=450, Y_2=32600, Y_3=360, Y_4=54310, Y_5=270$$

$$Y=450+32600+360+54310+270=87990 \text{ daqiqa}$$

Tadqiqot olib borilgan obyektning natijadorlik ko'rsatkichlari 6-jadvalda keltirilgan:

6-jadval

Iqtisodiyot obyektlarida fuqaro muhofazasi sohasidagi hujjatlarni ishlab chiqishda sarflanadigan vaqt me'yorlari

T/r	Bajariladigan tadbirlar	To'rao'rg'on neft bazasi" MCHJ		“Namangan xalqaro aeroporti” MCHJ	
		Kundalik faoliyat rejimi (daqiqa)	Innovatsion usulda (daqiqa)	Kundalik faoliyat rejimi (daqiqa)	Innovatsion usulda (daqiqa)
1.	FM sohasida ishlab chiqiladigan buyruqlar	1170	450	1510	540
2.	FM sohasida ishlab chiqiladigan rejalar	65440	13160	71580	13510
3.	FM sohasida faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalarini o'qitish bo'yicha hujjatlar	900	360	1080	420
4.	FM sohasidagi Nizomlar	65750	21910	70970	22480
5.	FM sohasida MTO'M o'tkazish bo'yicha hujjatlar	1350	270	1350	270
Jami		134610	36150	146490	37220

“To‘raqo‘rg‘on neft bazasi” MCHJ natijada oddiy holatda 134 610 daqiqa sarflangan bo‘lsa, yangi dasturi orqali 36 150 daqiqa vaqt sarflanadi. Agar iqtisodiyot obyektlarida FM bo‘yicha mas‘ul shaxslarga bu vazifa qo‘shimcha sifatida yuklatilganligini, o‘zlarning asosiy ishlardan ajralmagan holda mazkur tadbirlarni amalga oshirishini inobatga olsak, ushbu dasturning amaliyotda qo‘llanishi o‘zining juda katta ijobiy samarasi berish imkoniyati mavjud ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Har bir iqtisodiyot obyektida fuqaro muhofazasi sohasida hujjatlarni ishlab chiqish uchun o‘rtacha 98 460 daqiqa vaqtini tejab qolish mumkin. Bu esa Fuqaro muhofazasi bo‘yicha mas‘ul shaxslarning o‘z ustida ishlashi va boshqa topshiriqlarni bajarishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Bunda, Fuqaro muhofazasi sohasida hujjatlar vaqt taqsimotini oddiy va innovatsion usulda hisoblaganda oddiy rejimda 134 610 daqiqa sarflagan bo‘lsak, hozir esa 36 150 daqiqa vaqt sarflamoqdamiz va 73,14% ga samaradorlikka erishmoqdamiz.

“Namangan xalqaro aeroporti” MCHJ natijada oddiy holatda 146 490 daqiqa sarflangan bo‘lsa, yangi dasturi orqali, 37 220 daqiqa vaqt sarflanadi. Har bir iqtisodiyot obyektida fuqaro muhofazasi sohasida hujjatlarni ishlab chiqishda o‘rtacha 109 270 daqiqa vaqtini tejab qolish mumkin. Bunda, Fuqaro muhofazasi sohasida hujjatlar vaqt taqsimotini oddiy va innovatsion usulda hisoblaganda oddiy rejimda 146 490 daqiqa sarflagan bo‘lsak, hozir esa 37 220 daqiqa vaqt sarflamoqdamiz, 74.6% ga samaradorlikka erishmoqdamiz. O‘tkazilgan tadqiqotlar davomida obyektlarning ishchi xizmatchilar soni, obyektlarning joylashuvi ishlash va xizmat ko‘rsatish tartibi hamda ishlab chiqiladigan hujjatlarning soniga alohida ahamiyat berildi.

“E-elektron fuqaro muhofazasi hujjatlari” dasturiy ta‘minot har qanday obyektida qo‘llanilganida ham o‘zining samaradorligiga ega. Chunki iqtisodiyot obyektlarining fuqaro muhofazasi yo‘nalishida hujjatlarni o‘z vaqtida ishlab chiqish va xodimlarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishda innovatsion usulda foydalanishga masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asosan taqdim etilgan, “E-elektron fuqaro muhofazasi hujjatlari” dasturidan foydalanish o‘zining sodda va oson tuzilganligi bilan fuqaro muhofazasi bo‘yicha mas‘ullar faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining fuqaro muhofazasi sohasiga oid qarorlari ijrosini ta‘minlash samadorligini oshirish bilan ahamiyatlidir.

:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 17-avgustda “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish

to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-sonli yangi tahrirdagi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi axborot-huquqiy tizimi “Lex.uz”, 2022 yil.1-2 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi axborot-huquqiy tizimi “Lex.uz”. 6-11 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning hamda tuzilmalarni moddiy-texnik vositalar bilan ta’minlash (tabellashtirish) meyorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 369-sonli qarori, 17 b.